



Vebsayt: <https://involta.uz/>

SAID AHMADNING “JIMJITLIK” ASARI BADIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Bobur Yangiboy o‘g‘li Hakimov

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Ilmiy rahbar: Nodira Djoxongirovna

ANNOTATSIYA

Maqola yozuvchi Said Ahmadning “Jimjitlik” Romani yovuzlik bilan ezgulikning abadiy kurashiga bag‘ishlangan. Jimjitlik romanida sovet davridagi rahbarlarning chirkin hayoti, ezilgan oddiy xalqning turmush tarzi, uzoq yillar rahbarlar tazyiqi ostida Afrikada yashagan, ayoli va farzandidan ayrilib uyiga qaytgan Tolibjon, boylik va mansab uchun har qanday jirkanchlikka tayyor xotinboz rais Mirvali, otasi o‘ldirilib, onasi Mirvali tomonidan tortib olingan Azizbek kabi insonlar taqdiri hikoya qilinadi. Asarda turg‘unlik davri illatlari mukammal tarzda ochib berilgan. Romanida sirdan tinch, sokin ko‘ringan sho‘ro davrining ichki dramalari, tuzum inqirozi butun keskinligi, shiddati bilan ko‘rsatilgan. Asardagi deyarli barcha yetakchi personajlar fojiiyaviy qismat egalari. Roman o‘zining asov, „bebosh“ ifoda tarzi bilan timsoli ekaniga urg‘u berilgan.

Kalit soʻzlar: Dasht, togʻ, boylik, sandiq, qurol, oltin, mansab, jar, dolchin, koʻprik.

KIRISH:

Kishida badiiy asarni toʻgʻri anglash, taʼsirlanish fazilati adabiy asar oʻqish bilan oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi, asar oʻqir ekansiz badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega boʻlishi kerak, umummilliy miqyosda maktab amaliy taʼlimi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Yaʼni adabiy taʼlim vositasida maktabni bitirgan oʻquvchida badiiy asarni oʻqish va anglash boʻyicha muayyan tushunchalar shakllantirilishi, badiiy tahlilning ilk koʻnikmalari yuzaga keltirilishi kerak. Badiiy asar koʻzdan kechirilayotgan paytda muallifning, oʻquvchilarning dunyoqarashi hisobga olinsagina, tahlil toʻlaqonli boʻlishi mumkin. Muallifning dunyoqarashini yaqqol tushunib, toʻgʻri xulosa qilinmasa, asar mohiyatini toʻgʻri anglab yetib boʻlmaydi.

ASOSIY QISM

Said Ahmadning «Jimjitlik» romani 1986—1987 yillarda «Sharq yulduzi» jurnalida eʼlon qilinadi. Asar oʻsha paytlari yozuvchi tomonidan toʻliq yozilgan biroq, senzura muallifni adibni ogohlantirmay, hatto unga sezdirmay, asarning uchdan bir qismini olib tashladi. Va asar toʻlaligicha halqqa yetib bormadi. Said Ahmad shunda ham chekinmadi. oʻn toʻrt yil deganda romanni qayta tiklash uchun juda koʻp urindi va kitobning hozirgi holati shakllandi. Roman yovuzlik bilan ezgulikning abadiy kurashiga bagʻishlangan. Asarni oʻqir ekansiz, oʻsha zamondagi yuqori mansabni egallagan insonlar qanchalik pulga oʻch, razil, xotinboz, oʻz ayshi yoʻlida hech narsadan toymaydigan, va insonning qadr qimmatini yer bilan toptaydigan insonlar haqida yuragingizni changallab, naxotki jamiyatimizda shunaqa insonlar boʻlsa deb, asarni hayojonda oʻqiysiz.

Asar: odam bolasining koʻzidan yosh chiqmasa qiyin ekan. Yurak- bagʻrini oʻrtagan alamlar shu koʻz yoshi bilan chiqib ketadi. Kimki faryod urib yigʻlayolmasa, koʻzidan yosh chiqazolmasa, alamlarini ichiga yutsa — dardga chalinadi. Shuning uchun keksalar alam oʻrtagan kishiga, yigʻla, koʻnglingni boʻshat, deydilar. Bu gapda hikmat koʻp. Asar shu jumlar bilan boshlanib Tolibjonning yoshligi oʻtgan qishlogʻiga qaytishi bilan boshlanadi. Tolibjon qaytar ekan birinchi navbatda qishlogʻi

hali ham o'sha o'sha ekanligi, yoshligida qanday bo'lsa shunday turganligiga e'tibor bilan qaraydi. Va qishloqdagi uyiga yaqinlashadi va singlisiga ko'zi tushadi. Shu joyda yozuvchi singil va aka o'rtasidagi munosabatlarni shunaqangi yoritganki hozirda bir-birdan yuz o'g'irgan oka ukalar, opa singillar o'rnak olsa arziydi: U o'ylab-o'ylab, olis qishlog'ida qolgan o'gay singlisini esladi. Tolibjon uni ko'p yillardan beri ko'rmagan. Eri nima ish qiladi? qishloq. Bolaligini eslatadigan guvala devorlar bilan qurshalgan hovlilar, tengqurlari bilan birga cho'milgan jimjit soylar, olisda sadafdek chaqnab turgan cho'qqilar, yam-yashil o'tloqlar ko'ngliga taskin berar-ku! Singlisi o'gay bo'lishiga qaramay akasini juda yaxshi ko'rar edi. akasini ko'rib quvonganidan shoshilib qoldi. Bolalariga tez dadamgmi chaqir tog'ang keldilar deb aytgin deb jiyanlarini yubordi. Tolibjon Eshikdan jur'atsiz qadam tashlab hovliga kirdi.

Mototsiklni yonboshlatib g'ildiragiga yel berayotgan to'qqiz yoshlardagi bola notanish kishining hovliga kirganidan hayratlanib, moy bo'lib ketgan qo'larini lattaga artib o'rnidan turdi. Hovlining narigi burchida uch-to'rt bola yerga cho'nqayib o'tirib nimadir qilyapti. Ayvonda, hovliga orqa o'girib, bir kampir choy ichyapti. Tolibjon hovlini, uyni, ayvonni bir onda ko'zdan kechirib chiqdi. Birdan yuragi «shuv» etib orqaga tortib ketdi. Singlisi boshqa yoqqa ko'chib ketgan bo'lsa-ya! Bular begona kishilar bo'lsa-ya! Bolalardan biri unga yaqin kelib, salom berdi. — Zaynab opaning uylari shumi? — deb so'radi Tolibjon. — Ha, shu. Keling, tog'a. Tolibjon yengil tin oldi. — Sen Zaynabxonning kimlari bo'asan? — dedi tutilib Tolibjon. Ayvonda choy ichib o'tirgan kampir ovoz berdi: — Hoy, kim bilan gaplashyapsan, bolam? Bu ovoz Tolibjonga tanish edi. Yuragi bir hapriqib ketdi. Chamadonini yerga qo'yib, ayvon tomonga jadal yurdi. Gurs-gurs qadam tovushidan kampir o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Kampir to'qsondan oshgan, halimdek hilvirab qolgan. U — Tolibjonning o'gay onasi. Tolibjon qishloqdan chiqib ketganda payg'ambar yoshidan oshib ketgan edi. Tirik ekan. Tolibjon kela solib engashdi-yu, uning bo'ynidan quchoqlab, bir daqiqa so'z topolmay, entikib, turib qoldi. Bu jummalarni o'qir ekansiz ko'zingizga o'zingiz sezmagan darajada yosh keladi. chunki Tolibjon onasini quchoqlab, uning ko'zlari ko'rmay qolganligini biladi. Onaning ko'zlari ko'r bo'lishi mumkin lekin qalb ko'zlarlari hech qachon ko'r

bo'lmaydi. Ona farzandini quchoqlab yig'lab oladi. Bolam endi ketmaysana... shu yerda yasha biz bilan, shu yer seni ham uying deydi. Lekin Tolibjon o'qimishli, hayotni achchiqchuchigini ko'rgan, inson edi. Singlim bolalari bilan qayerga chiqadi, deb o'ylaydi va onasini hafa qilmaslik maqsadida hop deb qo'ya qoladi. Bolalar allaqachon xabar yetkazib bo'Mishgan ekan. Birin- ketin kuyov bilan bola ko'targan ikki qizi kirib kelishdi. Zaynab ikkala qizini uzatgan, har birining ikki, uchtadan bolasi bor edi. Zaynabning eri keldi. Tolibjon bilan bel olishib ko'rishdi. Keyin chorbog'dan qo'y sudrab chiqib, kampirdan fотиha so'radi. Kampir uzoq pichirlab, yuziga fотиha tortdi. Kuyov Tolibjonning oyog'i tagiga kelib, qo'y bo'g'ziga pichoq tortdi. Kech kirib, qishloq uylarida chiroqlar yondi. Qo'ni-qo'shnilar biri tovoqda chuchvara, biri shirguruch, biri somsa ko'tarib kirdi. Kuyov kampirni ko'tarib olib keldi-da, so'riga o'tqazdi. Zaynab akasining yelkasiga yangi to'n tashlab, gilam do'ppi kiydirdi. U to'g'riga o'tirib olib, akasidan ko'z uzmasdi. Goh kuladi, goh mo'lt-m o'lt yosh to'kib yig'aydi. Zaynabning ikki qizini ham farzandi bore di. Shundan ham bilishimiz mumkinki Tolibjonni qishloqqa kelmaganiga ancha yil bo'lganligini. Singlisi akasiga kuyovi bilan birga so'riga joy solib beragi. kuyovi tezda uxlab qoladi. Lekin Tolibjon bolaligida osmonga qab yulduzlarni sanaganidek, hozir ham osmon tip tiniq yulduzlar osmonda ko'zni quvontirar edi. Qishloq shunaqangi tinch ediki hatto qushlarning uyqisirab qanot qoqani ham quloqqa chalinar edi. U institutni tugatganda, qishloqqa bir kelib ketdi. Aspirantura yillari qishloqqa kelishning sira iloji bolmadi. Negadir onam o'gay, singlim o'gay degan fikr uni bu oiladan nariga itarardi. Bunga ma'lum sabablar ham bor edi. Zaynabning bo'yi cho'zilgan sari o'gay ona, Tolibjon bilan ikkovining boshini qovushtirib qo'yaman, begonaga ketmasin, derdi. Ona zim dan shunga tayyorgarlik ko'rardi. Tolinjonni onasi yoshligida olamdan o'tgan edi. Dadasi bolam onasiz o'tmasin deb bir qizi bor ayolga uylangan edi. Tolibjon o'z singlisiga uylanishni hohlamay shahardan kelmay ketganm edi. Erkak kishi qancha dard bo'lsa ham ichiga yutar ekan, onasi kelinim qayerda deb so'raganda ichidan nimadur uzulganday bo'ladi. Va odiygina uzoqlarda kul bo'ldi bolam yondi, deb qo'yadi. Tolibjon ancha bo'lgan voqealarni unitib o'ziga kelgan edi.

Hovli etagida kuymalanayotgan bolalar barobariga qiyqirib yuborishdi: — Katta ena,

tog'am keldilar, Mirvali tog'am keldilar! Mirvali Tolibjonning yoshligidagi birga o'sgan o'rtog'i edi. Kampir timirskilanib, Mirvalining yelkasiga qo'l tashlab ko'rishgan bo'ldi. — Voy, nimasini aytasan, bolam, g'oyibim hozir bo'lib, uyim to'lib qoldi. Endi oyog'imni uzatib ketaversam ham bo'ladi. Diydorini kobrolmayapman-da, bu ko'z o'ngur dunyoni zimiston qilib qo'ydi. Kelganing juda yaxshi bo'ldi-da, bolam. Tolib- jonginamning ichi to'la dardga o'xshaydi. Endi okzing uni bag'ringga ol. o'ksitma. Har qalay, yurtning tepasidagi odamsan. Mirvali u yoq-bu yoqqa alangladi. — Daydining o'zi qani? Qaysi goTga g'oyib bo'ldi? Atrofni o'rab turgan bolalar baravar javob qilishdi: — Tog'am pastda, orolchada o'tiriptilar. — Voy, chaqir uni. Mirvali tog'am keldilar, deb ayt. Mirvali Tolibjon bilan ko'rishib ketgandan so'ng ona Tolibjonga bu yaxshi inson emas deydi. Miryoqib mansabidan foydalanib bir cho'pon yigitni o'ldirib xotiniga egalik qilib oladi. Hamma buni bilsa ham hech narsa qilaolishmas edi. Bir kambag'alni bittagina sigiri bore di. Ishdan charchab kelib sigirni bug'doy yoqasiga o'tlatib uzlab qoladi, sigir bug'doy ichiga kirib ketganligini Miryoqib ko'rib qoladi va shu joyda sigirni odatiy holdek so'yib tashlaydi. Oyol qancha yalinmasin etibor ham qilmaydi. Qanchadan qancha qizlari nomusiga tegadi. Tog'dagi yashirin uyida qanchadan qancha qizlar nomusi toptaladi, bu jamiyatning qanchalik buzilganidan dalolat beradi odamlar faqat ishlashadi lekin ishiga yarasha haq olmaydi. Lekin hammasi ohirida yaxshilik bilan tugaydi gunoglar jazosiz qasos qiyomathga qolmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytisk kerakki, bu asarda yuqori mansabga o'tirib olib halqni qanchaliq ho'rlagan insonlar va oddiy hallqni dardi olib chiqilgan Miryoqib obrazini oladigan bo'lsak hotinboz, hotinlariga eng qimmatbaxo marjonlardan bo'yniga taqadi lekin ularning taqdiri, qadri ungqa zig'ircha qiziq emas edi biri o'lsa marjonlarni, uzuklarni yechib olib azasi o'tar o'tmas boshqasiga taqar edi. Asar so'ngida hammasi yaxshilik bilan tugaydi Cho'ponning o'g'li Miryoqibdan otasi uchun, onasi uchun, qasos oldi. Miryoqib qancha boylik yig'masin boyliklari hech narsa qilib bermadi. Dunyoda boylik yig'mang yaxshilik qiling savob yig'ing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- 1-Said Ahmad Jimjitlik Roman HXusanxodjaeva “Sano-standart” nashriyoti,2021-yil
2. Hoshimov, O‘. (2018). Dunyoning ishlari. Qissa. –T.: O‘qituvchi
3. Hoshimov, O‘. (2014). Yarim asr daftari. – Toshkent.
4. Karimov, N. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston.